



“KAPALAKLAR O‘YINI” ROMANIDA TRAGIK VAZIYAT XRONOTOPI

To‘ychiyeva Laylo,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktaranti

toychiyevalaylo0@gmail.com

Tel. +998910039326

Annotatsiya. Ushbu moqolada Kapalaklar o‘yini romanida tog’ xronotopining fojiaviy vaziyatni anglatishi ko‘rsatilgan. Sardorning o‘limi faqat o‘z ma’nosida bo‘lmay metaforik ahamiyat kasb etgani yozilgan. Insonning tragik vaziyati va go‘zallikni anglash vaziyati tog’ xronotopi orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xronotop. Vaziyat xronotopi. Kapalaklar o‘yini. Fojiaviy vaziyat. Go‘zallikni anglash.

Abstract. This article shows how the mountain chronotope in the novel *The Game of Butterflies* represents a tragic situation. It is written that the death of the commander has a metaphorical significance, not only in its meaning. The tragic situation of man and the situation of understanding beauty are revealed through the mountain chronotope.

Keywords: Chronotope. Situational chronotope. *The Game of Butterflies*. Tragic situation. Understanding beauty.

Абстрактный. В данной статье показано значение горного хронотопа в романе «Игра бабочек» как трагической ситуации. Написано, что смерть Сардара не только значима, но и метафорична. Трагическое положение человека и ситуация понимания красоты раскрываются через горный хронотоп.

Ключевые слова: Хронотоп. Хронотоп ситуации. Игра «Бабочка». Трагическая ситуация. Понимание красоты.



Xronotop asar mazmunini, umumiy syujet liniyalarini va asar kompozitsiyasini bir ritmda ushlab truvchi asosiy vositadi. Xronotop atamasiga oid qarashlar bir qancha mulohazalarning yuzaga kelishiga olib keldi. O‘zbek adabiyoshunoslida Uzoq Jo‘raqulov, Bahodir Karimov, Qozoqboy Yo‘ldoshev va boshqa bir qator olimlar xronotop haqida o‘zlarining qimmatli ma’lumotlarini berib kelmoqdalar. Biz ushbu maqolamizda “Kapalaklar o‘yini” romanida targik (fojiaviy) vaziyat xronotopini yoritishni maqsad qildik. Asarda tragik vaziyat bir necha o‘rinlarda ushraydi, ammo, Sardorning o‘limi bilan bog’liq holatga biz asosiy fojiaviy vaziyat deb qarashni joiz deb topdik. Sardor bilan bog’liq eng yorqin xronotop shakllaridan biri esa tog’ xronotopidir. Tog‘ xronotopi asar kompozitsiyasida muhim burilish nuqtalari va ruhiy anglash jarayonlari orqali ifodalanadi. U syujetning turli bosqichlarida paydo bo‘lib, voqealar rivojiga ta’sir qiladi. Bu xronotop orqali asar strukturasida sirli boshlanish, keskin dramatik cho‘qqi va anglash bosqichi bir-biriga bog‘lanadi. Tog‘ xronotopi asarda nafaqat syujet rivojining muhim komponenti, balki kompozitsyaning ichki strukturasini shakllantiruvchi va vaziyat kategoriylarini ochib beruvchi markaziy element sifatida namoyon bo‘ladi. Bu xronotop asar kompozitsiyasida voqealar tizimliligi, dramatik cho‘qqilar, anglash jarayoni bilan bog‘langan bo‘lsa, vaziyat kategoriyalari bilan murakkablik, go‘zallik va uni anglash, fojiaviylik mezonlari asosida uzviy munosabatda turadi.

Asar kompozitsiyasida tog‘ xronotopi uch asosiy bosqichda ko‘rinadi:

1. Sirli bosqich – Sardorning shaxsiy makoni sifatida seziladi, lekin hali bevosita ochilmaydi.
2. Fojiaviy cho‘qqi – Sardorning jarlikka qulash sahnasi orqali dramatik burilish hosil qiladi.
3. Anglash bosqichi – Do‘satlari Sardorning sirini ochadi va bu joy ularning anglash makoniga aylanadi.

Tog‘ning ushbu uch bosqichda aks etishi asarning dramatik ritmini shakllantiradi. Syujet chizig‘ida tog‘ xronotopi bo‘limlararo bog‘lovchi vazifani bajaradi. Sardorning sir saqlash bosqichi, fojiaviy yakun va xotira, anglash jarayonlari shu xronotop orqali uzviy bog‘lanadi. Shu tariqa, tog‘ xronotopi asar



kompozitsiyasida sir, fojea va anglash bosqichlarini bog‘lovchi markaziy tuzilma sifatida xizmat qiladi. Tog‘ xronotopi va vaziyat kategoriyalari bilan munosabati tahliliga e’tibor bersak, asarda vaziyat kategoriyalari o‘zgaruvchan, ko‘p qatlamlili va murakkab tuzilishga ega. Tog‘ xronotopi ushbu kategoriyalarni ochib beruvchi markaziy obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

a) Murakkablik va ulug‘vorlik kategoriyasi.

Tog‘ xronotopi Sardorning shaxsiyati bilan bog‘liq bo‘lib, inson ruhiyati va tabiatning ulug‘vorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Tog‘ oddiy geografik makon emas, balki inson ongining chuqur qatlami, ruhiyati, ichki olami bilan bog‘liq muhitdir. Sardor tog‘ni o‘ziga xos makon sifatida tanlaydi – tog‘ning ulug‘vorligi Sardorning ulug‘vor shaxsiyatiga ishora qiladi. Bu kabi ulug‘vor tog‘ faqat haqiqiy sardorlargagina o‘z g’ozalligini ko‘rsatishi, jilva qilishi romanda ko‘plab ramziy ma’nolarni anglatadi

b) Go‘zallik va uni anglash kategoriyasi.

Roman davomida g‘amgin ruh hukm suradi. Achinish, afsuslanish, xo‘rsinish kabi tuyg‘ular yetakchilik qiladi. Biroq tog‘ xronotopi butunlay o‘zgacha: u tasalli beruvchi, inson qalbida ajib tuyg‘ularni uyg‘otuvchi, Baqahovuzning boshqa joylariga o‘xshamaydigan makon sifatida tasvirlanadi. Muallif ushbu xronotopni Badal Armon tilidan quyidagi so‘zlar bilan keltiradi: “*O‘zi tug‘ilib o‘sgran shaharning bunchalik zebo ekanini u sira xayoliga keltirmagandi. Osmonda charaqlayotgan son-sanoqsiz yulduzlar ham Badalning ko‘ziga hech qachon bu qadar fusunkor ko‘rinmagandi. Xuddi qo‘l cho‘zsa yetadigandek. Lekin cho‘zmaysan—ularga teginib to‘zg‘itishga botinmaysan...* ”¹ Sardor tirikligida tog‘, faqat, uning shaxsiy makoni, bu joyni boshqalar bilmaydi. Uning o‘limidan keyin tog‘ do‘stlari uchun ham falsafiy anglash joyiga aylanadi. Badal tog‘da yolg‘iz qolganida Sardorni va uning hayot falsafasini to‘liq tushuna boshlaydi. U go‘zallikni faqat tog‘ xronotopi orqaligina his qildi. Bu jihatdan tog‘ xronotopi inson anglash jarayonining oxirgi bosqichini belgilaydi. Shu tarzda tog‘ endi shunchaki makon emas, balki go‘zallikni anglashning yakuniy joyiga aylanadi. “Kapalaklar o‘yini” romani

¹ To’xtamurod.R.Dengizni ko‘rmagan odamlar.toshkent.2020. 340-bet



kompozitsiyasida go‘zallikni anglash bosqichining ibtidosi ham intihosi ham faqat tog‘ xronotopi orqali namoyon bo‘ladi.

c) Fojiaviylik kategoriyasi.

Asar ichida vaqt va fofia elementlari tog‘ xronotopi orqali ifodalanadi. Tog‘ xronotopi o‘tgan vaqtning guvohi, uning fofjaviy to‘xtashi va xotiraga aylanishining markaziy nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Unda turg‘unlashgan millat ichra yashab, jarlikdan qulayotgan ne-ne navqiron Sardorlarning fofjaviy qismatini aks ettiradi. Tog‘ xronotopi hamda unda aks etuvchi tabiat manzarasi, Sardorning do‘satlari yuzidagi achinish, maxzunlik kayfiyati bilan umumiy tarzda tasvirlanadi. Shu tariqa, tog‘ xronotopi asar kompozitsiyasida sir, fofjaviy yakun va anglash jarayoni kabi asosiy syujet elementlarini bog‘lovchi markaziy xronotopga aylanadi. Bu holatlarni yuzaga chiqarishda tog‘ xronotopi, murakkab va ulug‘vorlik, go‘zallik va uni anglash, fofjaviylik kabi vaziyat kategoriyalari bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, "Kapalaklar o‘yini" romanida tog‘ xronotopi muhim badiiy va falsafiy vazifa bajaradi. Tog‘ asarda shunchaki geografik joy emas, balki inson hayoti va ichki kechinmalari aks etuvchi timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Tog‘ xronotopi romandagi dramatik voqealar rivojida ham muhim ahamiyatga ega. Tog‘ insonning tabiiy muhit bilan munosabatini, o‘z taqdiri va borliqni anglash jarayonlarini ochib beradi. Bu muhit voqealarning shiddatliligi va qahramonlarning ichki kechinmalariga ta’sir qilib, ularning harakatlarini, qarorlarini shakllantiradi. Bir so‘z bilan aytganda, romanda tog‘ xronotopi qahramonlarning ruhiy izlanishlari va falsafiy mushohadalarini chuqurlashtirish bilan birga, asarning umumiy poetik tuzilishida ham muhim o‘rin egallaydi. Romanda tog‘ nafaqat sahna, balki voqealar rivojini belgilovchi muhim timsol hamda vaziyat xronotopi vazifasini ham bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baxtin M. “Romanda zamon va xronotop shakllari”. T.: “Akademnashr”.2015
2. Jems Joys “Uliss sarguzashtlari” roman Toshkent “O‘zbekiston” 2013 y.
3. Rustamov T. “Kapalaklar o‘yini” Sharq nashriyoti. T. 2000
4. Rustamov T. “Dengizni ko‘rmagan odamlar” T.: “Global books”-2020y



5. Jo'raqulov U. "Nazariy poetika masalalari". T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015.
6. Журакулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси (монография) Тошкент турон-иқбол нашриёти 2017
7. Темирболат А.Б. Проблема хронотопа в современной прозе: Учебное пособие. – Алматы, 2003. –С.11.
8. To'rayeva B. "Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy tipologik tahlili". Diss.Toshkent -2022.40-b